



III.QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Samarqand viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022– yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 30 024,6 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 29 129,3 mlrd. so‘m (104,0 % ni), o‘rmon xo‘jaligi 797,2 mlrd. so‘m (102,3 % ni), baliq xo‘jaligi 98,1 mlrd. so‘m (91,0 % ni) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,1 % ni tashkil etdi.



Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (% da)



- Oʻrmon xoʻjaligi
- Baliq xoʻjaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xoʻjaligi sohasidagi xizmatlar

2022– yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,0 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,7 % o‘rmon xo‘jaligi, 0,3 % baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2022– yilning yanvar–sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (3 519 mlrd. so‘m) va Kattaqo‘rg‘on (3 357 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on shahrini (156 mlrd. so‘m) va Samarqand shahri (208,0 mlrd. so‘m) misol keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur‘atlari Oqdaryo (109,8 %), Samarqand tumani (108,4), Ishtixon tumani (107,9), Toyloq (105,8 %), tumanlarida kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, % da




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022– yilning yanvar–sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 29 005,4 mlrd. so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 13 711,0 mlrd. so'm (104,4 %)ni, chorvachilik mahsulotlari 15 294,4 mlrd. so'm (103,7 %)ni tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi (% da)



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 61,2 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 35,9 % – fermer

xo‘jaliklariga, 2,9 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da




2022– yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Oqdaryo tumanida (52,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (98,1 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand shahrida (29,8 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida mavjud emas, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Oqdaryo tumanida (42,1 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urgut tumanida (0,0 %) qayd etildi.


Dehqonchilik

2022– yilning yanvar–sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 15 294,4 mlrd. soʻmni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etdi. yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 52,7 % ni tashkil qildi.

Don jami



Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 635,0 ming tonna don (2021– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 10,9 % ga koʻp) yetishtirildi. Don yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, don yetishtirishning umumiy hajmidan 83,7 % fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari bo'yicha donli
ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna**



Sabzavotlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 203,7 ming tonna sabzavotlar (2021– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 1,5 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 56,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming. tn.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 544,2 ming tonna kartoshka (2021– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 5,8 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 69,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna**



Poliz



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga
oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 88,5 ming tonna poliz ekinlari (2021– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 6,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmidan 76,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari bo'yicha poliz
ekinlari yetishtirish
hajmi, tonna**




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 289,9 ming t. meva (2021– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 0,5% ga ko'p) yetishtirildi. Meva yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmidan 52,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari bo'yicha meva
va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna**



Uzum



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 498,4 ming tonna uzum (2021– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 4,0 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 59,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari bo'yicha uzum
yetishtirish hajmi, tonna**



Chorvachilik




2022– yilning yanvar–sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 13 711,0 mlrd. soʻmni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 47,3 % ni tashkil etdi. Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi..




2022– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 228,9 ming tonna goʻsht (2021– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 9,4 % ga koʻp), 1 013,2 ming t. sut (0,4 % ga koʻp), 1 062,2 mln. dona tuxum (9,5 % ga koʻp), va 5 565,1 t. baliq (-7,6 % ga kam) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 228,9 ming tonna go'sht (2021– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 9,4 % ga ko'p), yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 81,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Samarqand viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 008,9 ming tonna sut (2021– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 0,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 91,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Samarqand viloyati bo'yicha
ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna**



Tuxum



2022–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 062,2 mln. dona tuxum (2021–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 6,4% ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 54,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**Samarqand viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona**

